

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

JO‘RAQULOVA DILBAR XAYRULLAYEVNA

**ANTROPOGEN LANDSHAFTLAR SHAKLLANISHINI
TARIXIY-GENETIK DAVRLASHTIRISH
(Surxondaryo havzasi misolida)**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
geographical sciences**

Jo‘raqulova Dilbar Xayrullayevna

Antropogen landshaftlar shakllanishini tarixiy-genetik davrlashtirish

(Surxondaryo havzasi misolida) 3

Журакулова Дилбар Хайруллаевна

Историко-генетическая периодизация формирования антропогенных

ландшафтов (на примере бассейна Сурхандарьи)..... 21

Jurakulova Dilbar Khayrullaevna

Historical and genetic periodization of the formation of anthropogenic landscapes

(on the example of the Surkhandarya basin)..... 41

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

JO‘RAQULOVA DILBAR XAYRULLAYEVNA

**ANTROPOGEN LANDSHAFTLAR SHAKLLANISHINI
TARIXIY-GENETIK DAVRLASHTIRISH
(Surxondaryo havzasi misolida)**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Gr.237 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boymirzaev Karimjon Mirzaxmedovich
geografiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Urazbaev Abdukarim Kendirbaevich
geografiya fanlari doktori, dotsent

Toshov Xudoynazar Ramazonovich
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Etakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 15-sentabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Muqimiy ko'chasi, 45 uy. Tel.: (95) 410-20-10, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru. Samarqand davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№103 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh. Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel.: (0366) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 22-avgustda tarqatildi.
(2023-yil 16-avgustdagi 49-raqamli reestr bayonnomasi).

S.B.Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, g.f.d., professor

B.A.Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD)

A.Abdulqosimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, g.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tabiat va insonning o‘zaro ta’siri hamda bir-biri bilan dinamik bog‘liqlik jarayonida vujudga kelayotgan murakkab muammolarning yechimini topish alohida ahamiyatga ega. Bu muammolarni oldini olish va ularni optimallashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha dasturida “2030-yilgacha Yer yuzasining kamida 30 foizga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomini berish, buzilgan landshaftlarni qayta tiklash va ulardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to‘xtatish, biologik xilma-xillikni yo‘qolishini oldini olish...”¹ ga qaratilgan bir qator vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni bajarishda qurg‘oqchil iqlimli o‘lkalarda tabiiy-antropogen va antropogen omillar ta’sirida vujudga kelgan landshaft komplekslarining morfologik tuzilishini o‘rganish, barqaror rivojlanishining tarixiy-genetik jihatdan tahlil qilish, tasniflash, ularning paydo bo‘lishini vaqt bo‘yicha davrlashtirishni taqozo etadi.

Dunyoda qurg‘oqchil iqlimli hududlarda ekologik vaziyatning keskinlashib borishi, landshaftlarga ta’sir etuvchi omillarni me‘yorlashtirish hamda monitoring ishlarini uzluksizligini ta‘minlash, vujudga keltirilgan antropogen landshaftlarni tipologik jihatdan tadqiq etish, morfologik tuzilishini o‘rganish, tasniflash tamoyillarini aniqlash, prognozlashtirish va ularda landshaft tahlilini amalga oshirish kabi ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Antropogen landshaftlarga turli omillarning ta’siri natijasida, ularning shakllanishi, tarqalishi va barqaror rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda yer fondidan foydalanish monitoringini ishlab chiqish, tarixiylik tamoyili asosida qishloq xo‘jalik yerlaridan samarali foydalanish strategiyasi bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, ekinlarni joylashtirishda yer maydonlarining geografik joylashish o‘rmini aniqlash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish,” “O‘rmonlar maydonini kengaytirish”² vazifalarini o‘z ichiga olgan alohida yo‘nalishning belgilab berilganidan ham bilish mumkin. Bu borada, Surxondaryo havzasining antropogen landshaftlari shakllanishining tarixiy-genetik tahliliga oid tabiiy va iqtisodiy geografik omillarning rolini aniqlashga doir maqsadli tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyun, PF-5742-sonli “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari

¹ Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года //Электронный доступ: <https://uzbekistan.un.org/ru/sdgs/15>

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni <http://uza.uz>

to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi talablariga mos ravishda faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. "Yer haqidagi fanlar", V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi zamon landshaft komplekslarini shakllantirishda antropogen omilning ta'siri, antropogen landshaftlarning rivojlanish tarixi va ularni tarixiy hamda genetik tahlil qilish, xaritalash, landshaftlar tipologiyasi va ularni tasniflashni bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va bu izlanishlar hozirgi kunda ham davom ettirib kelinmoqda. Ushbu masalalarni xorijiy olimlardan P.Welikhe, A.R.Mermut, H.A.Moussa, C.Bichsel, rus geograflari Y.G.Saushkin (1946), F.N.Milkov (1967, 1973, 1981), V.S.Jekulin (1961,1972), A.G.Isachenko (1965,1991), A.M.Ryabchikov (1970, 1972), D.L.Armand (1975), L.I.Kurakova (1976), N.A.Gvozdetskiy (1977), A.E.Fedina (1977), V.I.Fedotov (1985) va boshqalar antropogen landshaftshunoslik va madaniy landshaftlarni o'rganishga oid tadqiqot ishlarini olib borganlar.

O'zbekistonda antropogen landshaftshunoslikning mintaqaviy va voha landshaftlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda morfologik tuzilishi L.N.Babushkin va N.A.Kogay (1964), A.A.Abdulqosimov (1983, 2010, 2016, 2020), A.Valiyev (1976, 1979), A.R.Rahmatullaev (2004, 2016, 2018), S.B.Abbasov (2007, 2018, 2021), K.M.Boymirzaev (2009, 2017, 2020), A.N.Xodjimatomov (1994, 2022), Q.S.Yarashev (2018, 2022), Y.X.Abduraxmonova (2004) va boshqa bir qator olimlarning asarlarida yoritilgan.

Biroq, antropogen landshaftlarni o'rganilishi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar serqirrali bo'lishiga qaramasdan Surxondaryo havzasining antropogen landshaftlari shakllanishining tarixiy-genetik tahlili alohida o'rganilmagan. Antropogen landshaftlarning tarixiy va genetik jihatdan tadqiq etish turli xil antropogen landshaftlarning yoshi, tarixiy davrlarda ularning rivojlanish dinamikasini aniqlash va prognozlash ishlari amalga oshirilmagan. Surxondaryo havzasining antropogen landshaftlarini tipologik jihatdan tadqiq etish, antropogen landshaftlarni prognozlash, tasniflash tamoyillarini ishlab chiqish, morfologik tuzilishini o'rganish va davrlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq "Janubi-g'arbiy O'zbekistonning geotizimlarini tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy baholash,

ularning geoeologik muammolarini o'rganish va kartalashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Surxondaryo havzasi antropogen landshaftlarining shakllanishi va ularni tarixiy-genetik tahlil qilish hamda davrlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Surxondaryo havzasi antropogen landshaftlari shakllanishining asosiy omillarini o'rganish;

antropogen landshaftlarning tipologik jihatdan tadqiq etish va morfologik tuzilishini o'rganish;

antropogen landshaft komplekslarining shakllanishini tarixiy-genetik qatorini tuzish va tarixiy-arxeologik jihatdan tahlil qilish;

antropogen landshaftlarni tasniflash va ularni prognozlashtirish;

Surxondaryo havzasining landshaft -tipologik va davrlashtirishga oid kartalarini zamonaviy ArcGIS dasturida tayyorlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Surxondaryo havzasining antropogen landshaftlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Surxondaryo havzasining antropogen landshaftlarini shakllanishi va barqaror rivojlanishining tarixiy – genetik tahlili, antropogen landshaftlarning paydo bo'lishini vaqt bo'yicha davrlashtirish, yoshini aniqlash va genetik qatorlarni tuzish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tarixiy-genetik, kartografik, manbalar bilan ishlash, statistik, geografik ekstrapolyasiya, ekspeditsion, GAT texnologiyalari, tizimli va tarixiy-qiyosiy tahlil, usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Surxondaryo havzasida vujudga kelgan antropogen landshaft komplekslarining shakllanish jarayoni tarixiy-genetik jihatdan asoslangan;

Surxondaryo havzasida antropogen landshaft komplekslarining rivojlanishi tarixi va yoshi aniqlangan hamda tarixiy-genetik jihatdan davrlashtirilgan;

havzada antropogen landshaftlarning tabiiy geografik jarayonlarini aniqlash va tarixiy-genetik qatorlarni tuzish asosida hudud tabiiy majmualarining kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlari 2022–2035–yillar uchun prognozlashtirilgan;

Surxondaryo havzasining landshaft–tipologik va davrlashtirishga oid kartalari (GATni qo'llash orqali ArcGIS, ENVI 4.5 kabi dasturlarda) yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ilk pleystotsendan hozirgi kunga qadar antropogen landshaftlarning kelib chiqishi, shakllanish va rivojlanish tendensiyasi aniqlangan;

tarixiy-genetik tadqiqot usuli asosida antropogen landshaft majmualari shakllanishining oltita davri aniqlangan;

vaqt doirasida antropogen landshaft komplekslarining turli yoshdagi genezisga ega ekanligi va shakllanishi ma'lum tarixiy davrlar bilan chambarchas bog'liqligi asoslangan;

Surxondaryo havzasining antropogen landshaft va landshaft–tipologik kartalari va tarixiy-genetik qatorning shakllanish tizimi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishini bajarish davomida tadqiqot natijalarining ishonchliligi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq Xo‘jaligi Vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi, Surxondaryo viloyati tabiat resurslari boshqarmasi ma‘lumotlari hamda dissertatsiyada muallifning dala sharoitida olib borgan kuzatuv materiallari va eksperimental tajribalarining natijalaridan foydalanilganligi va dala-kuzatuv ishlari asosida bajarilganligi, shuningdek, tadqiqot natijasida to‘plangan ma‘lumotlar asosida yaratilgan kartalar, olingan xulosa, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan maqullanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan arid hududlarida joylashgan havzalarning antropogen landshaftlarini zamonaviy tuzilishini tahlil qilish, antropogen landshaftlar va ularning shakllanishini tarixiy-genetik aniqlash, antropogen va tabiiy landshaft komplekslariga salbiy ta‘sir etuvchi hamda qishloq xo‘jaligiga katta zarar yetkazadigan hodisalarning oldini olish uchun ishonchli manbaligi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati antropogen landshaftlarning shakllanishini va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tarixiy-genetik tahlil qilish, hududni rivojlantirish va tabiatdan foydalanishni intensivlashtirishda antropogen landshaft yo‘nalishini amaliyotga samarali joriy etish, yaratilgan antropogen landshaft kartalari, sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi hududlarini rejalashtirish va turli xil meliorativ tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surxondaryo havzasi antropogen landshaftlarini shakllanishining tarixiy-genetik davrlashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Surxondaryo havzasida vujudga kelgan antropogen landshaft komplekslarining tarixiy-genetik jihatdan shakllanishi va davrlashtirish orqali ishlab chiqilgan tavsiyalari O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023- yil 4-maydagi 06/28-28-06/438-son ma‘lumotnomasi). Natijada antropogen landshaft strukturasi dinamikasi hududdagi mavjud yer fondidan foydalanishni takomillashtirishga imkoniyat yaratgan;

havza landshaftlarining mahsuldorligi, geografik tarqalishi va antropogen omil ta‘sirida vujudga kelgan landshaft holatining o‘zgarib borish dinamikasi va xaritalardan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 4-maydagi 06/28-28-06/438-son ma‘lumotnomasi). Natijada Surxondaryo havzasi hududida qishloq xo‘jalik yerlaridan rejali foydalanish imkonini bergan;

Surxondaryo havzasining landshaft-tipologik va sug‘orish jarayonini davrlashtirishga oid kartalaridan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida foydalanish uchun amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 4-maydagi 06/28-28-06/438-son ma‘lumotnomasi). Natijada, landshaft komplekslari mahsuldorligini aniqlash, qishloq xo‘jalik ekin turlarini landshaft imkoniyatlarini hisobga olib joylashtirish va antropogen landshaftlarini kadastr tizimini takomillashtirish imkonini bergan.

Surxondaryo havzasida antropogen landshaftlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarning prognozlaridan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 4-maydagi 06/28-28-06/438-son ma'lumotnomasi). Natijada, havza landshaftlarining kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy o'zgarishlarini oldini olish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish e'lon qilingan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida bajarilgan tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, muallifning nashr etilgan ilmiy ishlari va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Surxondaryo havzasi antropogen landshaftlarini tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari”** deb nomlanib, unda antropogen landshaftlarning tadqiq etish va morfologik tuzilishini o'rganish, antropogen landshaftlarni o'rganish tarixi va tasniflash tamoyillari, shuningdek antropogen landshaftlar shakllanishini tarixiy-genetik jihatdan tadqiq qilishning geografik jihatlari ochib berilgan.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida inson faoliyatining tabiatga ta'sirining kuchayib borganligi landshaftlarning antropogenlashuviga olib kela boshladi. Tabiiy muhitning holati geografik zonallik, geologik-geomorfologik jarayonlar va inson faoliyati tufayli tobora kuchayib borayotgan o'zgarishlar bilan belgilana boshlandi. Shu sababli hozirgi landshaftlar ma'lum darajada antropogen o'zgartirilgan, tabiiy landshaftlar bilan bo'lgan hududiy birikmadan iborat. Shu asosda tabiiy landshaftning antropogen landshaftga aylanishida antropogen omil asosiy negiz bo'lib hisoblanadi.

Inson hayoti mobaynida o'z ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarning barchasini tabiatdan oladi, ya'ni u tabiat bilan ma'lum darajada munosabatda—o'zaro ta'sirda bo'ladi. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro

ta'sirni tarixiy aspektida o'rganish ularning mazmunini to'g'ri tushunishga va kelajakdagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun imkon beradi. Surxondaryo havzasining antropogen landshaftlari, shuningdek, boshqa genetik qator tabiiy-geografik komplekslari, antropogen tipdagi urochisha, relyef va landshaftlardan tashkil topgan murakkab morfologik tuzilishga ega ekanligi olib borilgan tadqiqotlar natijasida ilmiy asoslandi.

Surxondaryo havzasining antropogen landshaft komplekslarini o'rganish va landshaft-tipologik kartalashtirish orqali quyidagi antropogen joy tiplariga ajratildi: to'qay (qayir), qayir usti-terrasali, tog'oldi-tekislik vohasi, eol-qumli cho'l va adir cho'l-dasht landshafti. Ushbu turdagi joy tiplari Surxondaryo havzasining keng ko'lamlari antropogen landshaft-tipologik karta-sxemasini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Shuni ta'kidlash kerakki, olib borilgan tadqiqotlar natijasida ajratilgan landshaft tiplari, o'rganilgan urochishelar va Surxondaryo havzasining tuzilgan landshaft-tipologik xaritasi ushbu hududning tabiiy geografik, geoekologik va landshaft-ekologik nuqtai-nazardan o'rganilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ob'ekti hisoblangan Surxondaryo havzasining antropogen landshaftlari, shuningdek, boshqa genetik qator tabiiy-geografik komplekslari, antropogen tipdagi urochisha, relyef va landshaftlardan tashkil topgan murakkab morfologik tuzilishga ega.

Yuqorida keltirilgan antropogen landshaft tiplarining tavsifi, ularning morfologik tarkibiy qismlari ajratilgan holda keltirilgan. F.N.Milkov (1973) ta'kidlaganidek, "Antropogen komplekslarning tabiiy komplekslar bilan o'Antropogen landshaft-tipologik komplekslarini tavsiflashda, ularning tabiiy-antropogen jihatidan, bir-biriga moslik tamoyilidan kelib chiqildi. zaro bog'liqligi, birinchisi, ko'pincha yuqori taksonomik darajadagi tizimli tabiiy landshaftlarning tarkibiy qismlari ekanligi bilan xarakterlanadi. Yerning landshaft sferasi tarkibida antropogen landshaft komplekslarning o'rni ortib borayotganiga qaramay, umumiy shakldagi bu qonuniyat, uzoq vaqt davomida belgilanmagan muddatda davom etadi. Har doim tabiiy landshaftlarning qismlari va sinflari, materik va tabiiy-geografik o'lkalar kabi yuqori taksonomik darajadagi birliklar mavjud bo'ladi. Shuning uchun antropogen komplekslarni o'rganishda, ularda tabiiy landshaftlarga nisbatan keskin qarama-qarshiliklar bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari, antropogen komplekslarni o'rganishda, bir vaqtning o'zida tabiiy landshaftlarni tahlil qilmasdan o'rganish imkonsizdir".

Landshaftlar geografiasining taraqqiyot tarixi, qolaversa landshaftlarni hosil bo'lishi va vujudga keltiruvchi omillarni fanning eng qadimgi va asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan tarixiy - genetik yo'nalishda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda asosan landshaftlarni aniqlash, kartaga tushirish, ularni morfologiyasi va gorizontalar hamda vertikal tuzilishini tadqiq qilish bilan shug'ullanilgan.

Antropogen landshaftlar shakllanishini tadqiq qilishning geografik jihatlarini antropogen landshaftshunoslik yo'nalishi orqali o'rganish qariyb yarim asrdan ortiqroq davr mobaynida ilmiy – nazariy asoslangan holda olib borilmoqda.

Darhaqiqat, yer yuzasida inson tomonidan o'zgartirilmagan tabiiy landshaftlar kam qolgan. Inson faoliyati bilan landshaft hosil qiluvchi jarayonlarni murakkablashtirdi, landshaftning morfologik tuzilishini o'zgarishiga olib keldi.

Hozirgi landshaftshunoslikda tarixiy-genetik tadqiqotlar tabiiy va antropogen landshaftlar tizimining tuzilishi, turli yoshdagi va o'lchovlardagi, miqdoriy va sifat o'zgarishi darajasini hamda makon doirasida vaqtinchalik o'zgaruvchanlikni tadqiq etishning yetakchi yondashuvlaridan biri hisoblanadi.

Antropogen landshaftlarni tarixiy-genetik jihatdan tadqiq etishning dolzarbligi va ahamiyati N.A.Solnsev (1949), K.Markov (1956), F.N.Milkov (1977, 1990), V.S.Jekulin (1972), V.A.Nikolaev (1979), A.A.Krauklis (1979), G.Isachenko (1991) va boshqalarning asarlarida o'z aksini topgan bo'lib, V.A.Nikolaev (1979) ning ta'kidlashicha "barcha tabiat komplekslari, shu jumladan yirik xududlarning landshaft tuzilishi, ularning shakllanishi, rivojlanishi, qayta o'zgarishi sodir bo'ladi xamda Yer yuzasida ma'lum bir joyni va tarixni egallaydi"(100; 237-238). Bularning barchasi har qanday toifadagi tabiiy-antropogen komplekslarni - qishloq xo'jaligi, seliteb, sanoat, ko'milgan qadimiy seliteb va boshqalarni tarixiy -genetik qatorini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin landshaftlar o'zlarining murakkab tuzilishi va shakllanishi, o'zining uzoq tarixi va rivojlanib borishida ma'lum bir davrlar bilan ajralib turadi.

Butun O'zbekistonda bo'lgani kabi Surxondaryo havzasi antropogen landshaftlarini tasniflash kategoriyalari va morfologik tuzilishi ham xilma-xil va murakkabdir. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi, antropogen-suv, sanoat, yo'l, rekreatsion, ko'milgan qadimiy seliteb va antropogen-yaylov kabilar ajralib turadi. Ushbu komplekslarni paydo bo'lish vaqtiga ko'ra turli yoshdagi genezisga ega va ularning shakllanishi tarixiy davrlarga bog'liq. Ushbu bobda tarixiy-genetik tadqiqot usuliga asoslanib, Surxondaryo havzasi antropogen landshaftlarining geoarxeologik davrlar bo'yicha vujudga kelishi va shakllanishining tarixiy-geografik tahlili keltirilgan.

Inson o'zining xo'jalik faoliyati davomida fan-texnika taraqqiyotining yangi yutuqlariga tayanib, Surxondaryo havzasi landshaft komplekslarining barcha variantlaridan to'la foydalanishga, ularni tubdan o'zgartirishga kirishdi. Shu bilan bir qatorda so'nggi davrda tabiiy resurslarni muhofaza qilish, oqilona foydalanish va ko'paytirish muammolari, melioratsiya ta'sirida tabiiy sharoitning o'zgarishini prognoz qilish, antropogen-landshaft prognozi va boshqalar yanada dolzarb masalaga aylanmoqda.

Tadqiqotning tarixiy-genetik usuli makon va zamon doirasida tahlil, nafaqat qishloq xo'jaligi landshaftlarining tarixiy-genetik qatori, balki Surxondaryo havzasining boshqa antropogen landshaftlarining shakllanishiga ham yordam beribgina qolmasdan, ularning shakllanishi va rivojlanishining turli davrlarga tegishli qonuniyatlarini aniqlash imkonini ham berdi.

Dissertatsiyaning **"Surxondaryo havzasi antropogen landshaftlarini shakllantiruvchi omillar"** deb nomlangan 2-bobida havzaning geografik joylashuv antropogen landshaftlarning shakllantiruvchi omil sifatida ekanligi, antropogen landshaftlarning vujudga kelishi va rivojlanishida geologik va

geomorfologik tuzilish, iqlimiy va gidrogen omillarning ta'siri hamda Surxondaryo havzasida antropogen landshaftlarning shakllanishida tuproq va biotik omillarning roli yoritilgan.

Surxondaryo havzasi – O'zbekiston Respublikasining eng janubiy qismidagi subtropik mintaqada joylashgan tabiiy geografik hudud. U xuddi shu nomdagi geosinklinal mintaqalarda hosil bo'lgan neogen va to'rtlamchi cho'kindilari bilan to'ldirilgan. Ushbu depressiya janubiy Tojikistonning vulqon depressiyasining shimoliy tarmog'i bo'lib, bir qismi O'zbekistonning janubida joylashgan.

Surxondaryo havzasi shimolda baland Hisor tog' tizmasi, sharqda Bobotog' va Tuyuntog' tizmalari, g'arbda Ko'hitang tog' va Boysuntog', janubda esa Amudaryo daryosi vodiysi bilan chegaradosh. Havzaning geografik joylashuvi, yuzasining tuzilishi, issiqlik va gidroenergetika resurslarining boyligi ushbu hududning inson taraqqiyoti va tabiiy landshaftlarning antropogen o'zgarishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Surxondaryo havzasining geologik va geomorfologik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari, inson xo'jalik faoliyatining tabiiy muhitga bo'lgan munosabati bir qator qulayliklarni keltirib chiqaradi. Bu antropogen landshaftlarni vujudga kelishi va eng muhimi tabiatga ilk ta'sir ko'rsatib kelinayotgan dastlabki relyef shakllari tubdan o'zgartirilib, ular o'rnida antropogen relyef shakllari bunyod etilgan hududlardan biri bo'lishiga olib kelgan.

Antropogen landshaftlar ham, inson tomonidan yangi yaratilgan landshaftlar ham va ularning har qanday tarkibiy qismlari, jumladan hayvonot dunyosi bilan o'simliklarining inson ta'siri ostida tubdan o'zgargan tabiiy kompleksdir. Antropogen landshaftlarning vujudga kelishi va rivojlanishida iqlimiy va gidrogen omillarning ta'siri natijasida Surxondaryo havzasida zamonaviy antropogen o'zgarishlar bilan bir qatorda noxush landshaft – ekologik muammolar ham kelib chiqqan. Bu holatlarni oldini olish maqsadida bir qator chora – tadbirlar ishlab chiqildi.

Tabiatdan foydalanishning murakkablashganligi, kishilarning tabiiy resurslarga bo'lgan extiyojining ortishi sifat jihatdan o'zgarganligi, bu jarayonlar nafaqat tabiatga, balki Surxondaryo havzasi hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etmoqda. Hududda mavjud bo'lgan antropogen landshaftlar va tabiiy komponentlar bir-biri bilan o'zaro muvozanatda rivojlanishi e'tiborga olinib, tadqiqotda antropogen landshaftlardan foydalanish masalalari landshaft, majmual, tarixiy-genetik, tizimli kabi o'zaro bog'liq bo'lgan ilmiy yondashuvlar asosida olib borildi. Shuningdek, Surxondaryo havzasining antropogen landshaftlarini tasniflash ishlari amalga oshirildi va quyidagi sinflarga ajratildi: 1. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi landshaftlari. 2. Voha seliteb landshaftlari. 3. Lalmi dehqonchilik landshaftlari. 4. Antropogen-suv landshaftlari. 5. Rekreatsion landshaftlar. 6. Antropogen-yaylov landshaftlar sinfi.

Surxondaryo havzasining relyef shakllari qishloq xo'jaligida foydalanish, uchun qulay sharoitga ega bo'lganligi tufayli, ularning aksariyati antropogen transformatsiyaga uchragan. Shuning uchun, bu joylarning rivojlangan yerlarida, relyefning antropogen shakllari yaxshi rivojlangan (1-jadval).

Surxondaryo havzasining prolyuvial tekisliklaridan qishloq xo‘jaligida foydalanish

Rel'ef tiplari	Rel'ef shakllari			Balandlik yassi yuzalari
	Soy yonbag‘rlari	Soy tagi	Soy suvayirg‘ichlari	
Tog‘oldi	Chorva yaylovlari, bog‘dorchilik (uzumchilik)	Chorva yaylovlari	Chorva yaylovlari, bog‘dorchilik	Bahorikor ekinlar, yaylovlar
Prolyuvial tekisliklar Yuqori qismi	Chorva yaylovlari, bog‘dorchilik	Chorva yaylovlari	Bahorikor dehqonchilik, chorva yaylovlari	Yaylovlar, bahorikor dehqonchilik
O‘rta qismi	Bahorikor dehqonchilik, sug‘orma dehqonchilik	Bahorikor dehqonchilik, bog‘dorchilik	Bahorikor dehqonchilik, bog‘dorchilik	Yaylovlar, bahorikor dehqonchilik
Quyi qismi	Bahorikor dehqonchilik, sug‘orma dehqonchilik	Bahorikor dehqonchilik, bog‘dorchilik	Bahorikor dehqonchilik, bog‘dorchilik	Yaylovlar, bahorikor dehqonchilik, sug‘orma dehqonchilik
Daryoning yuqori terrasasi	Chorva yaylovlari, bog‘dorchilik	Sug‘orma dehqonchilik	Sug‘orma dehqonchilik	Yaylovlar, bahorikor dehqonchilik, bog‘dorchilik

Izoh: jadval tadqiqotchining shaxsiy izlanishlari natijasida to‘plangan ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Antropogen landshaftlarning vujudga kelishi va rivojlanishida iqlimiy va gidrogen omillarning ta’siri natijasida Surxondaryo havzasida xozirgi zamon antropogen o‘zgarishlar bilan bir qatorda noxush landshaft – ekologik muammolar ham kelib chiqdi. Bunday holatlarni oldini olish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi, jumladan:

- qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashish xususiyatlarini qayta ko‘rib chiqish;
- intensiv bog‘dorchilik tarmoqlariga keng o‘rin berish, madaniy ekinlarni tuproq va landshaft tiplariga moslashtirish;
- havzaning agroiqlim sharoiti xilma-xil ekanligini e’tiborga olish, qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish va ularni turlarini tanlash hamda madaniy o‘simliklarni yangi turlarini joylashtirishda iqlim elementlarining taqsimlanishini hisobga olish;
- agrolandshaft komplekslarining geografik tarqalishi va rivojlanishida tabiiy komplekslar singari zonal qonuniyatga bo‘ysunishini e’tiborga olish;
- havzadagi mavjud sug‘orish – drenaj tizimlarining eskirishi va yaroqsiz holga kelishi bilan murakkab jarayonlarni keltirib chiqarishi sug‘oriladigan geosistemalarning agrokimyoviy va agroekologik holatini yaxshilash, yerlarning sho‘rlanishini kamaytirish va oldini olishda samarali bo‘lgan suv – xo‘jalik va fitomeliorativ tadbirlarni ishlab chiqish;

- sug'orish jarayonida Surxondaryo havzasi tuproqlarida yer osti suvlarining sathi ko'tarilib, bu jarayon tuproqlarni turli darajada sho'rlantirmoqda, bunday yerlarda vertikal va gorizontal zovurlar tizimini to'g'ri loyihalash, mavjud irrigatsiya va melioratsiya tizimini qayta tiklash kabilarni ilmiy asoslangan holda amalga oshirish ko'zlangan samarani beradi.

Antropogen tuproqlarning hosil bo'lishi va evolyusiyasi sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi esa juda qadimiy tarixga ega bo'lib, insoniyat faoliyatining mahsuloti bo'lib hisoblanadi.

Surxondaryo havzasining tuproq qoplami o'z xususiyatiga ko'ra xilma-xildir. Havzaning qadim zamonlardan beri sug'orib dehqonchilik qilib kelinayotgan tuproqlari agrotexnik jihatdan yuqori unumdorli bo'lgan. Ammo hosil bo'lish jarayoni hamda mexanik tarkibiga ko'ra, sug'oriladigan tuproqlar allaqachonlar tabiiy belgilarni yo'qotgan tiplarga aylanib ketgan.

Surxondaryo havzasining sug'oriladigan yerlarida yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi olinishi mumkin bo'lgan unumdorlik darajasidan sezilarli ravishda kam. Buning asosiy sababi, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan agromeliorativ tadbirlarni to'laqonli amalga oshirilmasligi, havzaning tuproq-iqlim sharoitiga mos qishloq xo'jalik ekin turlari va navlarini joylashtirilmasligidir. Shuningdek samarali va ilg'or innovatsion agrotexnologiyalarga kam e'tibor qaratilishi tuproq unumdorligi va qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Qishloq xo'jaligini tashkil etish, har bir joyning tabiiy omillari majmuasi va tabiiy-geografik sharoitini hisobga olishni talab qiladi. Chunki bunday sharoitda tabiiy omillardan bir yoki bir nechta etakchi rol o'ynashi mumkin. Xususan, tuproq yuzasining tarkibi katta ahamiyatga ega. Hududning iqlimi, suv resurslari va yer tuzilishi xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir mintaqada ekinlarning unumdorligini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, relyefni baholashda, uning qiyaligi, qishloq xo'jaligi texnikalaridan qayta ishlash va ulardan foydalanish qulayligi, chorva mollarini boqish uchun sharoit mavjudligi hisobga olinishi lozim.

Shuningdek, Surxondaryo havzasining cho'llanish jarayoniga uchrayotgan landshaftlarini muhofaza qilish uchun arid hududli mintaqasida ixotazorlarni tashkil etish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlarini yanada kuchaytirish lozim. Cho'llarning ixotazorlashtirishi aholining sog'ligini saqlash, tabiiy muhitning musaffoligini ta'minlash, shamol eroziyasiga qarshi kurashish, ko'chma qumlarni to'xtatish va mustahkamlash, cho'llanish jarayonlarini oldini olish, yaylovlarning biomassalarini oshirish, biologik xilma-xillikni ko'paytirish kabi muammolarni yechimi sifatida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Buning uchun uzoq masofali va keng ko'lamli saksovul, turong'il va arid hududlar sharoitiga moslashgan o'simlik urug'larini ekish maqsadga muvofiq. Bu o'rmonli belbog' qum ko'chishi va garmsel xavfining kamayishiga xizmat qiladi. Ixotazorlar maydonining yil sayin kengaytirib borish esa Surxondaryo havzasida joylashgan yaylov landshaftlarini keng ko'lamda muhofaza qilish chora-tadbirlari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya ishining **“Surxondaryo havzasi antropogen landshaftlari shakllanishining tarixiy-genetik davrlashtirish va prognozlashtirish”** deb nomlangan 3-bobida antropogen landshaftlar shakllanishini tarixiy-genetik jihatdan tadqiq qilishning geografik jihatlari, tarixiy-genetik tahlil asosida antropogen landshaftlarning shakllanishini davrlashtirish masalalari, tipologik antropogen landshaftlarning vujudga kelishi, antropogen landshaftlarning faol shakllanishi, antropogen landshaft turlarining intensiv shakllanishi, antropogen landshaftlarning fan-texnika taraqqiyoti negizida shakllanishi davrlari ochib berilgan.

Landshaftlar geografiyasining bir asrdan ortiqroq rivojlanish tarixini o‘rganar ekanmiz tabiiy geografik yoki landshaft muhitlarida olib borilgan kuzatishlar va to‘plangan ma’lumotlar asosida u yoki bu landshaftni faqat makonda emas, balki, zamonda ham o‘zgarib turishini tadqiq qilish, matematik statistika tadqiqot usullaridan foydalanish va tadbiiq qilish imkoniyatlari yaratildi.

Landshaftlar geografiyasining taraqqiyot tarixi, qolaversa landshaftlarni hosil bo‘lishi va vujudga keltiruvchi omillarni fanning eng qadimgi va asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan tarkibiy - genetik yo‘nalishda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishda asosan landshaftlarni aniqlash, kartaga tushirish, ularni morfologiyasi va gorizontal hamda vertikal tuzilishini tadqiq qilish bilan shug‘ullanilgan.


Antropogen landshaftlar shakllanishini tadqiq qilishning geografik jihatlarini antropogen landshaftshunoslik yo‘nalishi orqali o‘rganish qariyb yarim asrdan ortiqroq davr mobaynida ilmiy – nazariy asoslangan holda olib borilmoqda. Darhaqiqat, yer yuzasida inson tomonidan o‘zgartirilmagan tabiiy landshaftlar kam qolgan. Inson faoliyati bilan landshaft hosil qiluvchi jarayonlarni murakkablashtirdi, landshaftning morfologik tuzilishini o‘zgarishiga olib keldi. Cho‘l zonasining qadimgi antropogen landshaftlarining sug‘oriladigan tashlandiq maydonlarida cho‘llashish bosqichma-bosqich davom etgan, ayrim geokomplekslar boshqalari bilan almashgan. Shuning uchun, har bir mintaqadagi qadimgi obikor yerlar tabiiy muhit va ekologik sharoitga qarab, o‘zining tarixiy-genetik qatorlariga ega. Shundan kelib chiqqan holda, Surxondaryo havzasining qadimgi sug‘orma antropogen landshaftlari quyidagi tarixiy-genetik qatorlarga ega;

- sug‘oriladigan o‘tloq-tuproqli delta tekisliklari;
- o‘tloq-taqir tuproqli va o‘tloq qoldiqli tekislik;
- begona o‘tlar va tuya tikanli taqirli cho‘l;
- siyrak va kovrak-efemer-efemeroidli o‘simlikli taqir cho‘l;
- qatlamida agroirrigatsiya yotqiziqlari uchraydigan tipik taqirli cho‘l.

Surxondaryo havzasida joylashgan tabiiy obyektlarning deyarli barcha hududini geologik zamini, geomorfologik tuzilishi, tuproqlari kabi tabiiy omillarning landshaftlarni shakllanishidagi o‘rnini Amudaryo bo‘yida joylashgan Termiz shahridan to Hisor tog‘ tizmasigacha bo‘lgan masofani qamrab olgan landshaft kesmasidan ham ko‘rish mumkin (1-rasm).

Kesmada baland tog‘, o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar va yuqori adir landshaftlari va adir – tog‘oldi va prolyuvial tekislik landshaftlari o‘z ifodasini topgan. Kesma havza landshaftlar geografiyasining taraqqiyot tarixi, qolaversa landshaftlarni hosil bo‘lishi va vujudga keltiruvchi omillarni tadqiq qilish imkonini

beradi. Mazkur ma'lumotlardan foydalanilgan holda, shuningdek tarixiy materiallar va ishlanmalar asosida hamda olib borilgan shaxsiy tadqiqotlarimiz natijasida Surxondaryo havzasi antropogen landshaftlarining shakllanish tarixi davrlashtirildi (Jo'raqulova, 2022):



1-rasm. Surxondaryo havzasining landshaft kesmasi

